

ONA TILI DARSLIKLARIDAGI MATNLARDAN KOMPETENSIYAGA
YO'NALTIRILGAN TOPSHIRIQLAR ISHLAB CHIQISH

*Samarqand davlat pedagogika instituti
o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs magistranti*

Suyunova Nazira Valijon qizi

nazirasuyunova021@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ona tili darsliklaridagi matnlardan foydalanib, kompetensiyaga yo'naltirilgan topshiriqlarni ishlab chiqish masalasi yoritilgan. Unda o'quvchilarda lingvistik, nutqiy, kommunikativ va madaniy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar yaratish tamoyillari, darslik matnlarining imkoniyatlari hamda amaliy misollar tahlil qilinadi. Maqolada o'qituvchining ijodkorlik yondashuvi, interfaol metodlardan foydalanish zaruriyati va topshiriqlarning o'quvchi faolligini oshirishdagi roli ham asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *ona tili, kompetensiya, matn, topshiriqlar, metodika, kommunikativ yondashuv, interfaol metod*

Аннотация: *В данной статье рассматривается вопрос разработки заданий, направленных на формирование компетенций, на основе текстов из учебников узбекского языка. Анализируются принципы создания заданий, способствующих развитию лингвистических, речевых, коммуникативных и культурных компетенций учащихся. Приведены практические примеры и методические рекомендации по эффективно использованию текстов на уроках родного языка.*

Ключевые слова: *узбекский язык, компетенция, текст, задание, методика, коммуникативный подход, интерактивные методы*

Abstract: *This article illuminates the issue of developing competency-oriented tasks using texts from mother tongue textbooks. It analyzes the principles of creating tasks that serve to shape linguistic, speech, communicative, and cultural competencies in students, the potential of textbook texts, and practical examples. The article also substantiates the importance of the teacher's creative approach, the necessity of using interactive methods, and the role of tasks in increasing student activity.*

Keywords: *mother tongue, competency, text, tasks, methodology, communicative approach, interactive methods.*

Zamonaviy ta'lim jarayoni o'quvchining mustaqil fikrlashi, muloqotda faol bo'lishi, o'z fikrini aniq va to'g'ri bayon etish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Shu bois ta'limda kompetensiyaviy yondashuv muhim o'rin tutadi. Ona tili darslari bu jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki til — fikrni ifoda etish, tafakkurni shakllantirish va ijtimoiy muloqot vositasidir. Ona tili darsliklaridagi matnlar o'quvchilarda shaxsiy, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiruvchi vosita sifatida katta ahamiyatga ega. Shu sababli, darslik matnlaridan kompetensiyaga yo'naltirilgan topshiriqlar ishlab chiqish o'qituvchidan puxta tayyorgarlik, ijodkorlik va metodik yondashuvni talab etadi. Ayniqsa, yangi avlod darsliklari aynan, integratsiya va kompetensiyaga tayanadi. Fanlararo integratsiyaga

asoslangan yangi avlod darsliklari o'qituvchidan ham ijodiy yondashuv, tanqidiy fikrlashni talab qiladi. O'quvchilardagi o'qib tushunish ko'nikmasini hosil qilish ona tili va adabiyoti o'qituvchisi va shu fan oldida turgan asosiy maqsad hisoblanadi.

Kompetensiya – bu o'quvchining o'z bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Ona tili fanida bu, asosan, nutqiy, lingvistik, kommunikativ va ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni qamrab oladi. Darslik matnlarining mazmuni, janri va g'oyaviy yo'nalishidan kelib chiqib, o'qituvchi o'quvchilarning faoliyatini rivojlantiruvchi topshiriqlarni ishlab chiqadi. Bunda topshiriqlar o'quvchini tahlil qilish, muloqotda ishtirok etish va ijodkorlikka undaydi. Demak, kompetensiyaga yo'naltirilgan topshiriq – bu o'quvchini faqat nazariy bilim bilan cheklamay, uni real hayotiy vaziyatlarda nutqiy faol bo'lishga, muloqot qilishga, mustaqil fikr yuritishga undaydigan topshiriqdir. Bunday topshiriqlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, ularni ijodiy fikrlashga rag'batlantiradi. Masalan, 5-sinf ona tili darsligi 1-qismida berilgan “Yagonadir Vataning sening!” mavzusidagi matndan so'ng quyidagi topshiriqlarni berish mumkin:

1. Matndan xalqning madaniy qadriyatlarini ifodalovchi so'z va iboralarni toping.

2. Vatan va tuproq tushunchalarini bog'lovchi fikr bayon eting.

3. Matn mazmunidan kelib chiqib “vatanni asrash burchimiz” mavzusida kichik nutq tayyorlang.

Bu topshiriqlar orqali o'quvchilar nafaqat til birliklarini o'rganadi, balki o'z fikrini mustaqil ifodalash va madaniy munosabat bildirish ko'nikmasini ham rivojlantiradi.

Ona tili darsliklaridagi matnlar turli janrlarda bo'lib, ularning har biri ma'lum kompetensiyani rivojlantirish uchun qulay manba hisoblanadi. Masalan: badiiy matnlar (o'quvchining estetik didi va nutqiy kompetensiyasini rivojlantiradi), ilmiy-ommabop matnlar (mantiqiy tafakkur va tahliliy fikrlashni kuchaytiradi), axloqiy-ta'limiy matnlar (ijtimoiy-madaniy va axloqiy kompetensiyani shakllantiradi).

O'qituvchi har bir matnning mazmuni, uslubi va g'oyaviy yo'nalishidan kelib chiqib, mos topshiriqlar tuxishi zarur. Bunda topshiriqlarni quyidagi tamoyillarga asoslanib ishlab chiqish maqsadga muvofiq:

1. Mazmuniy moslik – topshiriq matn g'oyasiga mos bo'lishi kerak.

2. Amaliy yo'nalganlik – o'quvchini real muloqot vaziyatiga tayyorlashi kerak.

3. Ijodkorlikni rag'batlantirish – o'quvchiga erkin fikrlash imkonini berish zarur.

Kompetensiyaga yo'naltirilgan topshiriqlarni ishlab chiqishda quyidagi bosqichlarga e'tibor qaratiladi:

• Matn tahlili – asosiy g'oya, muammo va mavzuni aniqlash.

• Kompetensiyani tanlash – matn qaysi ko'nikmani rivojlantirishga xizmat qilishini belgilash.

• Topshiriq shaklini tanlash – og'zaki, yozma, interfaol yoki ijodiy.

• Baholash mezonlarini ishlab chiqish – o'quvchi faoliyatini adolatli baholash uchun.

Mana shu kategoriyalarga asoslangan holda 5-sinf ona tili 1-qism darsligida berilgan “Dunyoni gullarga burkagan bola” matniga quyida topshiriqlar keltiriladi. Masalan:

1. Matndan o'zingizga eng ta'sirli fikrni tanlang va uni izohlang.

2. Matn qahramonining nutqidan uning xarakterini aniqlang.

3. Matndan fodalaniib “Yaxshilik” mavzusida dialog tuzing.

4. Matn asosida 5ta so'z birikmasini yozing va ularning ma'nosini izohlang.

Ona tili darsliklaridagi matnlar o'quvchining tilni o'rganish jarayonida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu matnlardan kompetensiyaga yo'naltirilgan topshiriqlar ishlab chiqish o'quvchini passiv bilim oluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muloqotda faol bo'lish va ijodkorlikni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Ona tili fani konsepsiyasi. – Toshkent, 2020.
2. Hasanov, M. Til va tafakkur. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Nurmonov, A. Zamonaviy o'qitish metodlari. – Toshkent: Ilm Ziya, 2021.
4. Jalolova, M. Ona tili ta'limida kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent, 2022.
5. Shodiyev, B. Tilshunoslik va metodika asoslari. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2023.
6. European Framework of Key Competences for Lifelong Learning. – Brussels, 2018.